



O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA YAXSHILIK VA YOVUZLIKNI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI

Mamashoev Umid Ulug'bek o'gli

O'zDJTU magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7769705>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 17- mart 2023 yil

Ma'qullandi: 19-mart 2023 yil

Nashr qilindi: 25-mart 2023 yil

KEY WORDS

Semantik maydon, frazeologik birlik, structural-semantik, yaxshilik va yovuzlik, axloqiy-psixologik, "yurak" komponentli frazeologik birliklar

ABSTRACT

Maqolada o'zbek va ingliz tillarida yaxshilik va yovuzlikni ifodalovchi frazeologik birliklarning semantik tahlili ochib berilgan. Ushbu maqolaning maqsadi o'zbek va ingliz tilida "yaxshilik va yovuzlikni" ifodalovchi "yurak" va "heart" komponentli frazeologik birliklarining semantik sohalarini o'rganish, tahlil qilish va qiyoslashdir. Axloqning ikki asosiy kategoriyasi bo'lgan yaxshilik va yovuzlikni ifodalovchi birliklar shaxs sifatlarini xarakterlaydi hamda axloqiy va axloqsizlik mazmunini ifodalaydi.

Hozirgi zamon tilshunosligida tilda frazeologik birliklarning rivojlanishini madaniy jihatdan o'rganilishi til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi, chunki turg'un iboralar tilning boshqa lingvistik birliklariga qaraganda inson hayoti bilan bog'liqdir. Bu tushunchalar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, hozirgi kungacha davom etib kelayotgan an'ana va marosimlar asosida shakllanadi. Frazeologik birliklar tarkibida onomastik komponentlar mavjud bo'lganda, bu xususiyat yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Sababi, onomastik birliklar xalqning o'tmishi bilan bugungi hayotini bog'lovchi ko'priklarni bajaradi. Binobarin, turli tizimli tillardagi frazeologik birliklarni, ularning etimologiyasi, tuzilishi, semantikasini alohida o'rganish, tasnifini yaratish tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, jahon tilshunosligida frazeologik birliklar bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Ulardan, L.A.Bulaxovskiyning asarlari, A.V.Kunin, L.Qulieva, K.Musaev, I.S.Stepanova, E.F.Arsenteva, I.N.Isabekov, A.V.Urazmetovanning asarlari bu borada katta ilmiy ahamiyatga ega.

Turli tillar tizimida E.F.Artsenteva inson tabiatini ifodalovchi frazeologik birliklarni qiyosiy tahlil qiladi, I. Stepanova gul nomlari bilan bog'liq frazeologik birliklarning rus va ingliz tillari tizimini ko'rib chiqqan. I.Isabekov qirg'iz va rus tillaridagi frazeologik birliklarni tarjima qilish muammolarini o'rgangan. Bu boradagi muhim tadqiqotlardan biri Z.K.Korzyukovanning ingliz tilidagi o'ziga xos nomlar bilan frazeologik birliklarning funksiyasining asosiy jihatlari mavzusidagi dissertatsiya ishida ko'rsatib bergan. Uning tadqiqotida ingliz tilshunosligidagi frazeologik birliklarning eng muhim xarakteristikasi nomuvofiq komponentlar sifatida ko'rsatilgan bo'lib, Kuninning Inglizcha-ruscha lug'ati asosida tahlil qilingan. U o'z tadqiqotida iboralarning etimologiyasi, lingvistik va ruhiy xususiyatlari, tasnifiga ham katta ahamiyat

bergan.

Tilda hech narsa mukammal mavjud bo'lmaydi. Har bir so'z, har bir grammatik vosita, har bir tovush va urg'u asta-sekin o'zgaruvchan shakl bo'lib, u tilning mavjudligi ko'rinmas va shaxssiz holda shakllanadi. Tilning doimiy o'zgarishi haqidagi Geraklit tushunchasi, ayniqsa, semantikaga taalluqlidir, chunki barcha lingvistik elementlardan ma'no o'zgarishlarga eng kam qarshilik ko'rsatadi. Shu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, vaqt o'tishi bilan so'z ma'nolarigina emas, balki so'zlashuv nutqida vujudga kelgan mavhum so'z turkumlari ham semantik o'zgarishlarga uchraydi. [1]

Ko'p asrlik vizual kuzatishlar va tajribalarga asoslanib, odamlar doimo inson organizmida sodir bo'layotgan hodisalarni tushuntirishga harakat qilishgan. Masalan, ular g'azablangan odamning yuzi qora yoki qizarib ketishini yoki nosog'lom odamlarning rangi oqarib ketishini yoki kuchli qo'rquvni boshdan kechirganda yuzi oqarib ketishi kabi misollarni keltirishimiz mumkin. Bu kuzatishlar natijasida ayrim frazeologik birliklarni misol keltiramiz: *qizarib ketmoq, oqarib ketmoq, bo'zga o'xshab yoki dokadek oqarib ketmoq, yosh boladek ko'karib ketmoq va h.k.*

Ammo ba 'zida bunday tahlillar uchun imkoniyat yo'q. Bunda kishilar aqliy tushunchalarni amalga oshiradilar va hodisalarni axloqiy-psixologik idrok etishga erishadilar va gaplarda frazeologik birliklarni ishlatadilar: *bag'ritosh, ko'z tegishi, o'zini o'zi yeyish va h.k.*

Bu semantik o'zgarishlar metafora, metonimiya, giperbola, o'xshatish kabi ma'lum stilistik vositalar yordamida sodir bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu ma'no o'zgarishlari natijasida yaratilgan frazeologik birliklar boshqa semantik sohaga o'tadi. Tilshunoslikda ma'no sohasi nutqning turli qismlariga mansub bo'lib, bir tushunchani ifodalovchi so'z birligi deb qaraladi. So'zlar kabi frazeologik birliklar ham turli semantik sohalarga tegishli bo'lishi mumkin. Bunda lisoniy birliklar grammatik, strukturaviy, stilistik va boshqa o'ziga xosliklaridan qat'i nazar, o'z komponentlari orqali ifodalangan butun ma'noga ko'ra o'sha sohalarga mansubligi ko'rsatiladi. Tana a'zolari nomlarini o'z ichiga olgan ko'plab frazeologik birliklarni o'zbek, rus va ingliz tillarida topish mumkin. Bu til birliklari kishilarning ichki dunyosini, unga aloqador hodisalarni, tabiati va xulq-atvorini, his-tuyg'ularini, istak hamda umidlarini ifodalaydi. Tana nomlari o'zbek, rus va ingliz tillarida turli xil ramziy va semantik qadriyatlarga ega bo'lishi mumkin va mazmuni jihatda ular ko'pincha bir biriga mos keladi. Bu esa shu tillarda so'zlashuvchi xalqlarning lingvistik tafakkuridagi o'xshashliklarning dalilidir, ikkinchi tomondan ma'no va ramzlar o'rtasidagi farqlar o'sha xalqlar lingvistik tafakkurining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Yaxshilik jamiyat tomonidan axloqiy, ijobiy, to'g'ri, taqlid qilishga arziydigan tushunchadir. Yovuzlik esa salbiy xatti-harakatlar va hodisalarni ijtimoiy taraqqiyotga qarama-qarshi deb hisoblaydi va jamiyat tomonidan nomaqbul, axloqsiz va qoralanadi. Yaxshilik saxiylik, mehribonlik, hamdardlik, yumshoqlik kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi, yovuzlik esa, aksincha, shafqatsizlik, vahshiylik. Inson qalbida paydo bo'ladigan ijobiy yoki salbiy his-tuyg'ular odamlarni va ularning xatti-harakatlarini mehr va yomonlik sifatida tavsiflovchi yaxshi va yomon hodisalarning kelib chiqishi hisoblanadi. Balki aynan mana shu his-tuyg'ular inson qalbini qo'zg'atib, hayajonga solib, lingvistik abstraksiyaning kelib chiqishiga aylanadi va shu bilan bu frazeologik birliklarning manbai bo'ladi.

Bu yerda biz ikkita maydonni ko'rsatishimiz mumkin:

“Yaxshilikni” ifodalovchi frazeologik birliklar.

“Yovuzlikni” ifodalovchi frazeologik birliklar.

Ingiliz tilidagi “heart” va “yurak” soʻzlarining semantik maydonini aniqlashda aynan uning mantiqiy tarkibi va obyektiv jarayonlarda hosil boʻlgan birikmalari yordamida yoritishga harakat qilamiz. “Heart” soʻzi oʻzbekchaga tarjima qilinganda bir qancha maʼnolarni ifodalaydi. Quyida biz “heart” soʻzining maʼno kengliklarini yaʼni semantik sarhadini belgiladik:

1. Inson xususiyatlari va fikrlarining markazi asosan tuygʻularni his qilish qobiliyati: *I have everything my heart desires. Mening yuragimda umidlarim bor.* Zavq-shavq, ishtiyoq maʼnosida keladi. Insonga shavq – shavqni oshirish, ishtiyoqini oshirish, unga zavq-shavq bagʻishlamoq: *I want you to put more heart into your singing.* Qoʻshiqni koʻproq zavq-shavq bilan kuylashingizni istayman.

2. (a) biror narsaning asosi yoki markaziy qismi - *There are tall trees in the heart of the forest.* Oʻrmonning oʻrtasida baland daraxtlar bor. (b) oʻsimliklarning, asosan karamning, piyozning va boshqalarining ichki barglari *Goats try to eat the heart of the cabbage.* Echklilar karamning ichki barglarini yeyishga harakat qiladi.

3. Yurak shaklidagi predmet, asosan qizil rangli yurak shakli
In party has many heart-shaped balloons. Bayramda yurak shaklli sharlar bor.

4. Inson tana aʼzolaridan biri, organizmda qon aylanish tizimini boshqaradi
Heart is the main point of our body. Yurak tanamizning asosiy organidir.

5. Kartadagi (oʻyin nomi) kartochkalardan birining nomi, tappon
John had all hearts in his hand. Jonning qoʻlida barcha tapponlar edi.
“Heart” soʻzining frazeologik birliklar va boshqa vositalar bilan kelganda quyidagi maʼnolarni bildiradi: at heart – yurak-yurakdan, yurak qoʻridan, tabiatan. *In his heart of hearts he sympathized with the strikers.*

U qoʻzgʻolonchilarga yurak – yurakdan achindi. *With his white head and loneliness he had remained young and green heart.* Oʻzining oppoq sochi va yolgʻizligiga qaramasdan, yurak qoʻrida yoshligi va chiroyini saqlab qolgan edi. *He’s not mean at heart.* U tabiatan yovuz emas edi. *After one’s heart-istagan, xohlagan.*

Tanner...However cheer up; we are going to have a day after your heart.

Tanner...harqalay, ruhingizni tushirmang! Biz istagan kunlar hali keladi.

be sick at heart sogʻinmoq, sogʻinchni his qilmoq

He is sick at heart. Uni sogʻinch qiynamoqda. b. koʻngli behuzur boʻlmoq, koʻngli aynimoq. *It’s very dangerous event. And I am sick at heart.* Qoʻrqinchli voqea ekan. Koʻnglim ayniyapti.

A big heart-oliyanob, marhamatli. He has a big heart man. U oliyanob inson

Break somebody’s heart-qattiq xafa qilmoq, ranjitmoq, dilini vayron qilmoq.

...and it would break her heart if she knew that Mary suffered. Meri qiynalganini eshitsa, u qattiq xafa boʻladi.

Bring somebody’s heart into mouth-oʻlguday qoʻrqitmoq, qattiq qoʻrqitmoq,

A sound that brought my heart into mouth was whistle. Meni qoʻrqitgan ovoz hushtak ekan.

Carry one’s heart on sleeve-hislarini yashirmoq, hislarini berkitmoq

Summerhay did not carry his heart on his sleeve and When he left his chambers to walk that last meeting, his face was much as usual..

Samerhey oʻz hislarini yashirmaydi vaparlamentdagi soʻnggi uchrashuvga kelgan boʻlsa-da, uning yuzi har doimgidek edi...

Cheer the cockles of one's heart-hursand qilmoq, yurakdan hursand bo'lmoq

To see you all happy cheers the cockles of my heart.

Sizlarni baxtli ko'rib, yurakdan hursand bo'ldim.

yuragi keng, yaxshi qalbli, qalbi erib ketmoq, qalbi yengil tortdi,

qalbi toza - sening yuraging shunchalik tozaki ular meni kechirishmagan taqdirda ham sen meni kechirding balki ozroq meni kechirmasdan qiynashing kerakmidi.

toza qalbdan - mana yana topildi dedi to'satdan Alekseyovnaga haqiqatdan ham yurak yuragimdan bilaman qalb parchalanishi- uning qalbi parchalandi shunga qaramasdan unga taqdiridagi joygacha yetdi.

Ko'rishimiz mumkinki, "yurak" va "heart" komponenti bo'lgan ushbu frazeologik birliklar asosiy ma'nodan tashqari yana bir qancha qo'shimcha ma'nolariga ega bo'lib, o'zbek tilida mehribonlik, hamdardlik, vijdon, saxovat, olijanoblik, mehmondo'stlik, do'stlik, rahm-shafqat ma'nolariga ega. Halollik ma'nosini ifodalovchi semantikasini rus va ingliz tilida ham kuzatish mumkin: yaxshilik munosabatlari, mulohaza qilish, yoki yon berish.

Maqolada ingliz tilidagi "heart" va o'zbek tilidagi "yurak" konseptlarining tushunchasini, obrazini va lisoniy ma'nosini yoritib berishga va izohlashga harakat qildik. Falsafa nuqtai nazaridan, til ilmi tushunchani reallashtirish manbai bo'lib, u mutlaqo mazmunning tashqi ko'rinishi hisoblanadi. Tilshunoslik ilmiy fikrining formasidan ko'ra ko'proq vositachi ta'rif bo'lgan termonologik tushunchalar bilan bog'liqdir. Bilimning har qanday ko'rinishi semiotik qonuniyatlarga bog'liq va uning belgilari yordamida tushuncha tilda ko'rinishga ega bo'ladi. Bu shu bilan birgalikda har tilning imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Heart" va "yurak" konsepsiyasi til maydonida ham o'z o'rniga ega bo'lib, u tuygu'larimiz va ta'sirlanishlarimizning markazi hisoblanadi va birgalikda quyidagi doimiy lingua-kulturologik xususiyatlarni namoyon qiladi:

- Jasorat
- Markaziylik
- Qo'rqinch
- Yaqinlik
- Bezovtalik
- Ruhiy azob
- Mehr

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillari frazeologiyasida insonning turli his-tuyg'ularini ifodalovchi ko'p sonli birliklar aniqlangan. Yurak konsepti o'zining juda keng ma'naviy xususiyatlariga ega. Ikki til uchun ham umumiy bo'lgan ushbu tushunchadan - obraz va lingvistik ma'no yaxlitligini yaratishdan falsafiy jihatdan tahlil qilishimiz kerak. Chunki konsept nafaqat tilning, balki tafakkurning ham birligi hisoblanadi. Til hissiyotlarimiz va tuyg'ularimizni ifodalovchi ekan, yurak til sathida asrlar davomida madaniy va ma'naviy evrilishlar tufayli ikki tilning o'ziga xos linguo-kulturologik xususiyatlarini o'zida jamlagan, yurak ularning makonidir. Yurak konsepti bundan tashqari ishonch, hasrat, yaqinlik, istak, siqilish, hayajon, keskin o'zgarish, ma'yuslik, dovyuraklik kabi tushunchalar doirasida ham kognitiv aloqalarni namoyon qiladi. Yurak konseptining o'zida qarama-qarshilik xususiyatini namoyon qilishi o'zbek va ingliz tili uchun analogik hisoblanadi. O'zbek tilida yurak konsepti ma'yuslik, ruhiy azob, qo'rqinch, bezovtalik, hasrat, intizorlik, siqilish, tashnalik kabi salbiy tushuncha va hissiyotlar bilan ifodalansa, ingliz tilida alam,

qo'rqinch, hursandchilik, ishonch, mehribonlik, yaqinlik, hayajon, jasorat, kayfiyat va g'ayrat kabi salbiy va ijobiy belgilar va tushunchalar bilan kognitiv aloqadorligi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Somatic phraseological expressions of Uzbek language: Dissertation.ph. Philological sciences.. -Tashkent, 1976.-p.196.
2. Mamatov A. Problems of formation of phraseology in Uzbek language,DDA. –Tashkent, 2000. - 49 p
3. Usmonova Sh.R. Somatic expressions in Uzbek and Turkish languages. Candidate of Philological sciences disser.- Tashkent1998.-p.162
4. Stoyanova, Inga. "Semantic Aspects of English Body Idioms." Diss. IRIM Chisinau, 2009. – 201 p

